

M.MUXAMEDOVA

ME'MORCHILIK ASOSLARI



TOSHKENT

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

M.MUXAMEDOVA

ME'MORCHILIK ASOSLARI

*O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi
tomonidan o'quv qo'llanma sifatida tavsiya etilgan*

TOSHKENT – 2018

UO‘K: 72.01(075.8)

KBK 85.11

M 96

M 96

M.Muxamedova. Me‘morchilik asoslari. –T.: «Fan va texnologiya», 2018, 296 bet.

ISBN 978-9943-11-927-7

Mazkur o‘quv qo‘llanma me‘morchilikning estetik talablari, texnik mukammalligi, binolar klassifikatsiyasi, asosiy soha va turlari, binolar konstruksiyasi, me‘morchilikning rivojlanish an‘analari, yangi tipdagi binolarning funksionalligi va konstruktiv mustahkamligi bilimlarini o‘zlashtirishga yo‘naltiriladi.

“Me‘morchilik asoslari” o‘quv qo‘llanmasi mazmuniga yetakchi xorijiy oliy o‘quv yurtlarida ishlab chiqilgan ilmiy qo‘llanmalar asosida me‘morchilikka oid ilmiy yangiliklar kiritilgan. Ushbu o‘quv qo‘llanma doirasida Qadimgi Misr, Old Osiyo, Uzoq Sharq me‘morchiligi, Qadimgi Gretsiya ibodatxonalarida qurilish konstruksiyalari va order sistemalari (doriy, ion, korinf), qadimgi Rim ustun-to‘sin sistemasiga yangi konstruksiyalar kiritilishi (kompozit va toskan orderlari) akveduk, amfiteatr, forum, insulalar qurilishi, Vizantiya va ilk xristianlar davri arxitekturasi, roman va gotika uslubi me‘morchilik asoslari, Uyg‘onish va barokko davri shaharsozligining rivojlanish an‘analari, klassitsizm va ampir uslubi asoslari, eklektizm, modern, konstruktivizm, funksionalizm uslublarining zamonaviy uslublar rivojidadagi o‘rni, yangi tipdagi binolarning funksionalligi va konstruktiv mustahkamligini o‘rganish kabi mavzular mujassamlashtirilgan.

O‘quv qo‘llanmaning asosiy dolzarbligi talabalarga Sharq va G‘arb, umuman olganda jahon me‘morchiligining tarixi va nazariyasini o‘rgatish, me‘morchilik tarixining tadriji, rivojlanish qonuniyatlarini o‘zlashtirish, turli uslublarning yuzaga kelishi va shu uslublar ta‘sirida bunyod etilgan obidalar me‘morchiligini yoritib berishdir.

UO‘K: 72.01(075.8)

KBK 85.11

Taqrizchilar:

J.X.Ismailova – t.f.d., professor, O‘zbekiston tarixi davlat muzeyi direktori;

T.B.Ahmedov – Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn instituti «Tasviriy san‘at tarixi va nazariyasi» kafedrasida dotsenti.

ISBN 978-9943-11-927-7



© «Fan va texnologiya» nashriyoti, 2018.

"ME'MORCHILIK ASOSLARI" FANIGA KIRISH. ME'MORCHILIK SOHA, TURLARI VA USLUBLARI.

Reja

1. Arxitektura atamasiga ta'rif
2. Me'morchilikda binolar qurilishida qonuniyatlar
3. Binolar klassifikatsiyasi
4. Me'morchilikda uyg'unlashuv asoslari
5. Me'morchilik uslublari

Jahon me'morchiligi tarixini o'rganish uning taraqqiyot qonunlarini tekshirish, nodir yodgorliklar bilan odamlarining his-tuyg'u, hayotiy tajribalarini o'rganish, g'oyaviy-estetik qarashlarining shakllanishini bilish demakdir. Bu so'zsiz insonga hayotiy tajribalarni boyitishga, hayotga yanada keng va atroflicha yondashishga yordam beradi. Me'morchilik tarixi odamzodning go'zallik yaratishidagi muvaffaqiyatining dalilidir. Hashamatli inshoot qurish, uning barqarorligi, kuchi, foydasini muhokama qilish asli muhandislik ishi. Keyinchalik bu arxitekturaning asosiy ishiga aylandi. Hozirda bu eng foydali san'at va foydali san'atning eng oliysidir. Arxitektura tarixi turli yerlar va davrlardagi me'morchilik uslublari, yutuqlarini, rivojlanishning yirik harakatlarini o'zida aks ettirgan¹.

Bo'lg'usi me'morlar uchun me'morchilik tarixini o'rganish, bilish juda muhim omillardan biridir. «Arxitektura tarixi» fanini aniqlashda, me'morchilik o'z oldiga qo'ygan maqsadidan kelib chiqib, insoniyat taraqqiyotining dastlabki davrlaridan boshlab o'rganiladi.

Arxitektura grekcha so'z bo'lib – "bosh quruvchi" degan manoni anglatadi. Binoni qurish san'ati, hamda majmualarni jamiyat talablariga nafaqat amaliy xizmat, balki, badiiy-g'oyaviy jihatdan uyg'unligini hal qilishi kerak.

¹History of Architecture A.D.F.Hamlin. A. M. Professor of the history of Architecture in the school of Architecture, COLUMBIA, UNIVERSITY, 1998 SEVENTH EDITION, p.6. Introduction. (A history of architecture is record of man's efforts to build beautifully. Only when the idea of beauty is added to that of use does a structure take its place among works of architecture. Architecture is the most useful of the fine arts and the noblest of the useful arts.) P20. CHAPTER 1. PRIMITIVE AND PREHISTORIC ARCHITECTURE.(EARLY BEGINNINGS. It is impossible to trace the early stages of the process by which true architecture grew out of the first rude attempts of man at building. The rude and elementary structures built by savage and barbarous peoples, like the Hottentots or the tribes of Central Africa, are not in themselves works of architecture, nor is any instance known of the evolution of a civilized art from such beginnings. So far as the monuments testify, no savage people ever raised itself to civilization, and no primitive method of building was ever developed into genuine architecture, except by contact with some existing civilization of which it appropriated the spirit, the processes, and the forms).

Bino va inshootlarni qurilishida ruxsat berilgan amaliy, eng sodda maqsadlarni bevosita badiiy ijodiy uyg'unlik bilan birga hal qilinishi kerak. Arxitektura inshootlari jamiyat madaniyatining bir bo'lagi bo'lishi bilan birga, u san'at asari hamdir.

Shunday qilib, arxitektura insoniyat taraqqiyotining bir turi bo'lib, uni oddiy qurilish ishi bilan chegaralab bo'lmaydi, lekin, uni faqat badiiy ijod turi deb ham bo'lmaydi.

"Har bir davrda arxitektura tushunchasi turlicha talqin etilgan. Rim me'mori Vitruviy klassik formula bo'yicha me'morchilik inshootining asosiy sifatini quyidagicha belgilagan: *mustahkamlik, foyda va chiroylilik*".²

Vitruviy bu ta'limotida shuni talab qilganki, binoning forma va kompozitsiyasi insoniyatning eng kerakli talablariga, halq an'alariga, o'sha joy iqlimiga, xalq urf-odatlariga, moslashtirishdan iborat".³

Feodalizmning erta davrlarida arxitektura tushunchasi bir oz toraydi. Uning vazifalari asosan qa'la, ibodatxona, qo'rg'onlar qurilishi bilan chegaralandi. Me'morchilik inshootlari insoniyatning tafakkuri hamda qarashlariga asosiy ta'sirini o'tkazadi.

Inson binoga qarab, uning yengilligi yoki og'irligini, bejirimligi yoki qo'polligini, past va balandligini, yaxlitligini va kompozitsiyasining aniqligi, uning formalarining bo'laklarini his eta oladi va o'z ta'sirini o'tkazadi.

Inson binoga kirib, uning ichki fazoviy kengligi, mahobatli ravoqlar, baland gumbaz, yuksak badiiy ishlov berilgan stalaktitalar, o'z o'rnida bino xarakteriga mos ravishda ishlatilganligiga hayratlanadi.

Asrlardan asrlarga o'tgan sayin me'morlarga bo'lgan talab kuchayadi. Arxitekturaviy yo'nalishni o'rganish ko'pgina davrlardanoq saroy va maqbarani, xalq turar joylarini o'rganishdan boshlanadi. Saroy va maqbaralar formalaridan ularning oddiy asosdan rivojlanishi topiladi. Xalq san'atining kuchi uning o'ziga xos yorqin xarakterli topilmalarini tarixiy monumental asarlarda yetkazib beradi.

Qadimgi Misrning piramida va Gretsiyaning maqbaralarida "abadiylik" g'oyalari aniq namoyon bo'lib, Qadimgi Misr arxitekturasida monumental g'oyalar farqlanadi. Misr maqbara, piramidalari firavnlr hokimiyatining abadiyligi bilan birga, ularning quldorlikni

²A World History of architecture. Marian Moffet, Michail W Fario, Lawrence Wodehouse. London. 2003. P.1. Introduction. (The roman architect and engineer Vitruvius, active around 40 BCE, considered the essentials of architecture to be *firmitas, utilitas, and venustas*, commonly translated as *firminess, commodity, and delight*).

³A World History of architecture Marian Moffet, Michail W Fario, Lawrence Wodehouse. London. 2003. P.1. Introduction. (Here *firminess* is structural stability, *commodity* is the meeting of functional requirements, and *delight* is beauty).

boshqarish demokratiyasi maqbara kompozitsiyalarida va ularning shaklida, antogonistik ravishda talqin etiladi. Yuqorida ko'rsatilgan arxitektura inshootlarining struktura va obrazlarini, inson tomonidan tabiat qonunlarini tan olinganini o'z inshootlariga yondashtirganlar. Shuning uchun arxitekturaning rivojlanish davri, inson tomonidan tinchlikni o'zlashtirish pog'onasi, bizga qimmatli bo'lgan ashyolar arxitektonik muhitda yaratilib tugallanadi. Shuni ko'zda tutish lozimki, arxitekturaning har bir davri mustahkam xarakterli bo'lishiga qaramasdan, uyg'onish davri usullarini shakllarda qo'llab, oz bo'lsa ham yangi vazifalarga yangi mazmun bilan javob beradi. Asrlar davomidagi arxitektura rivojlanishining shakl rivojlanishida, bir necha qonuniyatlar ishlab chiqildi.

Arxitektura tarixida ham mustahkam qonunchilik yuzaga keldi. Qonunchilikning ko'p qismi arxitekturaviy formalarni o'zgartirdi, ammo ularning davomiyligi uzoqqa cho'zilmasligi xarakterli edi. Aniqlangan tarixiy davr mobaynida yangi iqtisodiy, badiiy yangiliklarga qamralgan davr eski davrni cheklantiradi. Bu yerdan ko'rinadiki, arxitektura ilmining vazifasi arxitekturaning hayotiy progressiv qadriyatlarini o'zlashtirib, hozirgi davrga, halqqa moslanadi⁴.

Tarixiy materializm qadimiy yodgorliklarni qunt bilan arxitekturaning o'rganishga, shuningdek, har bir vaqtni mutanosibligini to'g'ri tanlash arxitektura tarixi darsligida turli davrlar hajmini to'g'ri o'zlashtirish lozim. Antik arxitekturaning biz o'rganamiz va bizning mahalliy merosimiz bunda ko'proq halq yaratgan qismiga e'tibor qaratiladi.

Arxitektura tarixi bir tomonlama rivojlanishi bilan chegaralanmasligi lozim. Funksional qurilish texnik g'oyaviy badiiy va boshqalar. Arxitektura tarixi inson faoliyatining ko'p qirralari rivojlanishi jamiyatning rivojlanishi bilan uzviy bog'liq holda jamoa rivojlanishi formalari arxitekturasida o'z samarasini topadi⁵.

⁴History of Architecture A.D.F.Hamlin. A. M. Professor of the history of Architecture in the school of Architecture, COLUMBIA, UNIVERSITY, 1998 SEVENTH EDITION, p.6 (All architecture is based on one or more of three fundamental structural principles. It is useful to have a standard way of defining principles. In addition to a definition statement, each principle should have associated rationale and implications statements, both to promote understanding and acceptance of the principles themselves, and to support the use of the principles in explaining and justifying why specific decisions are made. How the adoption of one or another of the principles affected the forms and even the decoration of the various styles.)

⁵A World History of architecture. Marian Moffet, Michail W Fario, Lawrence Wodehouse. London . 2003. P 7. (Architecture has to do with planning and designing form, space and ambience to reflect functional, technical, social, environmental and aesthetic considerations. It requires the creative manipulation and coordination of materials and technology, and of light and shadow. Often, conflicting requirements must be resolved. The practice of Architecture also encompasses the pragmatic aspects of realizing buildings and structures, including scheduling, cost estimation and construction administration. Documentation produced by architects, typically drawings, plans and technical specifications, defines the structure and/or behavior of a building or other kind of system that is to be or has been constructed).

Arxitektura tarixi fanning shunday xususiyati borki, unda uyg' o'nish davri o'rganiladi, turli tarixiy davrlarni yuzaga kelishi va rivojlanishi arxitekturaning faqat ma'lum bir tomonlarini emas, balki murakkab, ko'p qirrali, ya'niy dialektik birligini arxitekturada namoyon etadi.

Arxitekturaviy jarayonning rivojlanishi - eski uslublarning yangilari bilan qamrab olinishi, real formalarga aylantirilib utilitar g'oyalar ilgari suriladi. Shuning uchun arxitektura tarixi arxitekturaviy ijodiyotda progressiv uslublarni va tarixiy shakllarni o'rganadigan fan hisoblanadi.

Inson hayoti va faoliyati uchun zarur bo'lgan makonning loyihasini yaratish va uni qurish me'morlik san'atining mazmunini tashkil etadi. Turar joylar, yo'llar, hiyobonu maydonlar, yirik suv inshoot va madaniy xordiq uchun mo'ljallangan me'moriy majmualar hammasi shu san'atning turli ko'rinishlaridir. Bular uning bosh quruvchisi - arxitektori (me'mori) tomonidan loyihalashtiriladi va rahbarligida amalga oshiriladi. Bino va inshootlarning nima maqsadga xizmat qilishi, ya'ni ularning bajaradigan vazifasi aniqlanadi, uning to'g'ri hal qilish esa me'morlik asarini yaratishdagi asosiy omillardan hisoblanadi. Shular asosida me'morlik quyidagi soha va turlarga bo'linadi:

1. Turar-joy binolari va ma'muriy madaniy inshootlar sohasi

Turar-joy binolari qayerda va qanday qurilishiga qarab, past qavatli (4-5 qavatgacha) va ko'p qavatli (5 qavatli dan yuqorisi) kabi turlarga bo'linadi. Bu binolar asosan mahalliy iqlim sharoitlari, milliy an'analari va oila a'zolari soni kabilarga moslashgan bo'lishi kerak.

Jamoat va ma'muriyat binolari sohasi hozirgi davrdagi eng katta soha hisoblanib, o'z ichiga juda ko'p va xilma-xil turlarni oladi. Bu turlar bir-biridan bajaradigan xizmati va funksiyasi, xarakteri va individualligi asosida farqlanadi. Masalan: umumiy ta'lim-tarbiya binolari (yasli, bog'cha, maktab, internat va h.k.); o'rta va oliy ta'lim-tarbiya binolari (kollej, institut, universitet va h.k.); sog'liqni saqlash va dam olish binolari (poliklinika, kasalxona, dispanser, sanatoriya, kurort, dam olish uylari va h.k.); madaniy oqartuv binolari (teatr, kinoteatr, sirk, konsert zallari, Muzey, kutubxona, ko'rgazma pavilyonlari va h.k.); savdo-sotiq binolari (magazin, univermag, savdo markazlari, bozor va h.k.); umumiy ovqatlanish binolari (oshxona, choyxona,

qaxvaxona, restoran, va h.k.); sport bino va inshootlari (stadion, manej, basseyn, yaxt klub va h.k.); maishiy xizmat ko'rsatish binolari (hammom, atelye, maishiy xizmat ko'rsatish kombinatlari va h.k.); aloqa va transport bino va inshootlari (pochta, telegraf, aeroport, vokzal, avtovokzal, metropoliten va h.k.); ma'muriy xizmat binolari (har xil vazirlik, davlat muassasalari va h.k.).

2. Sanoat korxona va suv inshootlari me'morligi

Sanoat korxona va suv inshootlari sohasi asosan XIX asrda zavod va fabrikalarning rivojlanishi va qishloq xo'jaligining texnikaviy taraqqiyoti asosida yuzaga kelgan. Bu binolar arxitekturasida ularning bajaradigan funksiyasi hal qiluvchi ahamiyatga ega. Ya'ni binoning past-balandligi va katta kichikligi, ichki va tashqi qiyofasi shular jumlasidandir.

3. Landshaft me'morligi yoki bog'-park san'ati Landshaft me'morligi yoki bog'-park san'ati shahar hiyobonlari, kichik me'moriy hajmli qurilmalari bo'lgan, favvoralar, ko'prik va yo'lakchalari bo'lgan dam olish hududi me'morligida o'z aksini topadi.

4. Shaharsozlik. Shaharsozlik, me'morlikning katta va alohida sohasi hisoblanadi. Turar joylar, mavze (kvartal), kichik noxiya (mikrorayon), (mahallalar)lar, maydonlar va bog'lar, ko'cha va hiyobonlar, sanoat va ijtimoiy binolar va ular bilan birga transport magistrallari, turli kommunikatsiya ishlari hisobga olinib, kelajakda rivojlantirilishi ko'zda tutilgan shahar loyihasi yaratiladi. Mana shu loyiha asosida shaharlar barpo etiladi yoki qayta tiklanadi, ta'mirlanadi.

Me'morlik ham sanatning boshqa turlari singari davlat tarixi, madaniy ma'naviy mavqeni o'zida aks ettiradi, halqning turmush tarzi, estetik qarashlarini namoyon etadi. Shuning uchun bu san'at haqiqiy ravishda tarixiy voqealar salnamosi, davr oynasi sifatida e'tirof etiladi.

Inson paydo bo'lgandan boshlab o'zi uchun yashay dikan, yog'in-sochinlardan, sovuq va issiqlikdan muhofaza etadigan joylar qurishgan. Ular dastlab oddiy ko'rinishda toshlardan, yog'och va loylardan ishlangan. Davr o'tishi bilan jamiyatning shakllanishi va rivojlanishi jarayonida me'morlik san'ati ham rivojlandi va texnika viy tomondan o'sdi: uylar, saroylar, ibodatxona lar, harbiy istehkomlar, shaharlar, zavod va fabrikalar, ko'prik va suv inshootlari barpo etila boshlandi.

Xukmron sinf g'oyasi, qurilish texnikasi rivojining saviyasi me'morlikda o'z aksini topadi, shu tufayli har xil davrda qurilgan binolar bir-biridan farq qiladi. Biror me'morlik inshootini barpo etish

uchun jamoat mehnati, vaqti, qurilish materiallari va konstruksiyalari sarflanadi. Me'morlikda qulaylik, go'zallik va boshqa estetik talablar bilan birga uning maqsadga muvofiqligi va tejamkorlik talablari ham ko'zda tutiladi. Qulay, arzon, mustahkam va go'zal shiori qadim zamonlardan mavjud bo'lgan. Shu shior me'morlikdagi moddiy va badiiy asosiy qonunni o'zida mustahkam birlashtirgan. Ularning mazmuni quyidagi qoida ko'rinishida uchraydi: Qulaylik – binoning qanday vazifani bajarish uchun muvofiqlashgan me'morlik inshootlariga qo'yiladigan asosiy talablaridan biri bo'lib, aniq funksional jarayonni o'zidan aks ettiradi. Biror me'morlik inshootini qurishdan avval binoning me'moriy loyihasi ishlangan va unda fazoviy hajm tuzilishi to'g'ri hal qilingan bo'lishi kerak. Masalan, turar joylarda asosan mahalliy iqlim sharoitlari, ya'ni yozda issiq quyosh nuridan, qishda sovuq va yog'in-sochindan saqlanish masalalari ko'zda tutiladi. Xonalar soni va o'lchami unda yashaydigan oila a'zolari soniga qarab belgilanadi va hokazo. Teatr, kino - teatr va klublarda bo'lsa, sahnadagi yoki ekrandagi hodisalar zalning hamma joyidan yaxshi ko'rinishi va ovozning bir xil eshitilishi, odamlarning tez zalga kirish va undan chiqish kabi masalalar asosiy o'rinda turadi. Oshxonalarda asosiy funksiya ovqatlanish, maktablarda o'qish, sport zallarda har xil mashqlar o'tkazish kabilar bo'ladi va hokazo. Me'morlikda texnika mukammalligi katta o'ringa ega. U o'z ichiga qurilish texnikasi (qurilish materiallari, konstruksiyasi, mashinasi, texnologiyasi va asbob-anjomlari) va fani (konstruksiya, texnologiyasi, materiallar xususiyati kabilarini hisoblash va h.k.)ni oladi. Qurilish texnikasining qanday rivojlanganligi arxitektura rivojini belgilab beradi. Shu qatorda arxitekturaning o'zi texnikaga har xil talablar qo'yib uni rivojlantiradi. Umuman olganda arxitektura va qurilish texnikasi o'zaro moslashgan holda rivojlanadi. Ammo, ba'zan mana shu moslashish buziladi, ana shu davrda arxitektura inqirozga yuz tutadi.

Me'morlikda biror bino yoki majmuani barpo etishda uning iqtisodiy tomonlari ham katta ahamiyatga ega. Ya'ni arzon qurilish usullarini qo'llash natijasida binoga minimal xarajat sarflash ko'zda tutiladi. Shu bilan birga binoga bo'lgan talablar (chiroy, qulay va mustahkam) qondirilib, uning saviyasi kamaymasligi kerak. Me'morlikdagi go'zallik va nafosat tasviriy va amaliy san'atdagi shu tushunchadan ancha murakkab. Chunki me'morlik bir vaqtini o'zida ham moddiy, ham ma'naviy tomoni bilan mavjuddir. Ba'zi me'moriy

qurilmalarida, masalan, memorial muzey, maqbara, ko'rgazma zallari kabilarda binoning g'oya va mazmuni birinchi o'rinda bo'ladi. Ya'ni g'oya va mazmun bino arxitekturasida shakllanib badiiy obrazga aylanadi. Arxitekturadagi bu obraz davlatning siyosiy va iqtisodiy kuch-quvvatini, jamiyat xarakterini, mafkurasini o'zida aks ettiradi

Me'morlikning asosiy maqsadi insonlarning yashashi va ishlashi uchun kerak bo'lgan muhit, joy yaratishdir. Ammo bu masalani yechishda to'rt tomondan o'ralgan bino tushunilmaydi. Aksincha, qanday qilib mana shu muhit yoki joyni tashkil etilishi uning moddiy va ma'naviy tomonini to'g'ri hal qilish ko'zda tutiladi. Shu tufayli me'morlik mazmuni uning ko'p qirrali xarakterining jamiyat talabi bilan aniqlanishidadir. Bu mazmun ijtimoiy tartib jarayonlariga javob beruvchi, jamiyatning moddiy-texnika sharoiti va estetik ideallari bilan moslashgan holda me'morlik shakllarini tashkil etadi. Bu shakllarni yaratishda me'morlik san'atida kompozitsiya tushunchasi hal qiluvchi ahamiyatga egadir. Me'morlik kompozitsiyasi shundan iboratki, aniq qonun-qoida asosida joylashilgan yoki tashkil topgan, tashqi va ichki elementlari o'zaro mutanosib va hamoxang bo'lib, bir butunlikni, yaxlitlikni mujassamlashtirgan bo'ladi. Buni biror bino, inshoot, binolar ansambli (majmuasi), umumiy shahar arxitektura qurilishi kabilarda yaqqol ko'rish mumkin. Kompozitsiyaning uslub va usulari juda ko'p, shulardan ba'zilari: tektonika, o'lcham, mutanosiblik, muvofiqlik, nisbat (proporsiya) va biroxanglik (ritm), simmetriya va assimmetriya, keskinlik, yorug'lik va rang, qurilish materiallarining xususiyati va h.k. Mana shu kompozitsiyaning usul va uslublari har tomonlama yaxshi o'zlashtirilgan va qo'llanilgan taqdirdagina nafasat va foydalik, estetik va amaliy talablariga javob beradigan me'morlik asari yaratilishi mumkin. Shu asarlar bir-biridan, me'morning ijodiy uslubi va usuli bilan ham farqlanadi. Me'morlikda badiiy obraz yaratish o'zining vositalariga ega. Shulardan asosiysi fazoviylikni tashkil etish va tektonikadir. Bu ikki tushuncha me'morlik san'atida muhim ahamiyatga ega: mana shular yordamida bino yoki inshootni shakli, qiyofasi, past-balandligi, konstruksiyasi, ya'ni, bino obrazi xosil qilinadi. Oddiy qilib aytganda, tektonika bino o'zagi, suyagidir. Bu tizimni plastik hal etish, uyg'unlashtirish, hamda me'morlik shakllarini